

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI**

**TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION
G‘OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY
QILISH ZAMONAVIY TA’LIMNING BOSH
STRATEGIYASI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

I-II SHO‘BALAR



**2025,
26.04**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
AKADEMIK LITSEYI**

**TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION G‘OYALAR VA
TEKNOLOGIYALARNI JORIY QILISH — ZAMONAVIY
TA’LIMNING BOSH STRATEGIYASI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI
2025-yil, 26-aprel**

**IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE IDEAS AND
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS —
THE MAIN STRATEGY OF MODERN EDUCATION**

**PROCEEDINGS
of the Republican Scientific and Practical Conference
April 26, 2025**

**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ИДЕЙ И
ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС —
ОСНОВНАЯ СТРАТЕГИЯ СОВРЕМЕННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

**МАТЕРИАЛЫ
Республиканской научно-практической конференции
26 апреля 2025 года**

BUXORO - 2025

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 70-sonli buyrug‘iga asosan Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyida 2025-yil 26-aprel kuni “Ta‘lim jarayonida innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish - zamonaviy ta‘limning bosh strategiyasi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan iborat.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma‘lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

TASHKILIY QO‘MITA

S.G‘. Siddiqova	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, p.f.f.d. (PhD)
A. Naimov	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyati hududiy boshqarma boshlig‘i
A.B. Nizomov	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, i.d.f., professor
E.Z. Halimov	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi ijrochi direktori, p.f.n., dotsent

TASHKILIY QO'MITA A'ZOLARI

E.S. Nazarov	BDU “Fizika” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi
D.T. Norova	BDTU akademik litseyi O‘IBD o‘rinbosari
G.I. Nazarova	BDTU akademik litseyi MMIBD o‘rinbosari
J.J. Kurbanov	BDTU akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrası o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
A.A. Qobilova	BDTU akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G.Y. Sherbekova	BDTU akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrası o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
S.S. Halimov	BDTU akademik litseyi “Aniq fanlar” kafedrası mudiri
I.X. Davlatov	BDTU akademik litseyi “Tabiiy fanlar” kafedrası mudiri
M.F.Nuriddinova	BDTU akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrası o‘qituvchisi, Respublika ilmiy-amaliy konferensiya kotibi

Anjuman o‘tkaziladigan joyi va manzili:

Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyi
Buxoro viloyati, Buxoro shahri,
Navoiyshoh ko‘chasi 12-B uy

Aloqa uchun telefon raqami:

Tashkiliy qo‘mita a‘zosi: +998905133001 // +998887960808

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION G’OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH - ZAMONAVIY TA’LIMNING BOSH STRATEGIYASI” ILMIY – AMALIY KONFERENSIYA

KIRISH SO’ZI

S.G‘.Siddiqova - p.f.f.d. (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Hurmarli mehmonlar, aziz hamkasblar, ilmiy jamoatchilik vakillari!

Avvalo, siz azizlarni bugungi ilmiy-amaliy anjumanda ko‘rib turganimdan mamnun ekanligimni bildirishga ijozat bergaysiz. Sizlarni Buxoro davlat texnika universiteti nomidan samimiy qutlab, konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Bugungi ilmiy tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ–200-sonli “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 9-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 70-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning muhim bosqichidir. Shu asosda 2025-yil 26-aprel kuni Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyida “Ta’lim jarayonida innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish – zamonaviy ta’limning bosh strategiyasi” mavzusidagi ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi.

Muhtaram ishtirokchilar!

So‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan chuqur va tizimli islohotlar zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli vositalarni keng joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga qaratilganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonlariga tatbiq etish masalasi hozirgi kunda nafaqat dolzarb, balki strategik ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda.

Bugungi anjumanning asosiy g‘oyasi ham — innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish, raqamli va pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, interaktiv o‘qitish metodlari, masofaviy ta’lim shakllari, sun‘iy intellekt, virtual ta’lim muhiti, STEAM yondashuvi kabi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etishdan iboratdir.

Hozirgi kunda biz ta’lim tizimining oldida turgan eng muhim strategik vazifa — bu o‘qitish jarayoniga zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish ekanini chuqur anglab yetyapmiz. Innovatsiya so‘zi endi faqat texnologiya bilan bog‘liq tushuncha emas, balki butun ta’lim muhitining, pedagogik yondashuvlarning va eng asosiysi — o‘qituvchi va o‘quvchi

fikrlashining yangilanishini anglatadi. Shu o‘rinda bir fikrni alohida ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim o‘qituvchidan endilikda nafaqat bilim beruvchini, balki motivatsiya manbai, metodologik yo‘l ko‘rsatuvchi, ijodiy sherik va texnologik tafakkur egasi sifatida faoliyat yuritishni talab qilmoqda. Shuningdek, o‘quvchi yoki talabani “iste’molchi” emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirish — innovatsion yondashuvlarning eng asosiy maqsadidir.

Bugungi anjuman doirasida yurtimizning turli oliy ta’lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar maktablaridan tashrif buyurgan olimlar, tajribali ustozlar, metodistlar va izlanuvchi yoshlarning ilmiy qarashlari almashiladi. Ularning ilgari suradigan g‘oyalari, ilmiy-amaliy takliflari ta’lim tizimining zamonaviy qiyofasini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddaman.

Aziz anjuman ishtirokchilari!

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan har bir islohot, har bir innovatsion tashabbus ortida bitta yuksak maqsad mujassam — bu ham bo‘lsa, barkamol, kreativ fikrlovchi, milliy g‘ururga ega va global mehnat bozorida raqobatbardosh avlodni tarbiyalashdir. Bu yo‘ldagi harakatlarimizda bugungi kabi ilmiy platformalar muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan ushbu anjumanni nafaqat dolzarb masalalar muhokamasi balki, istiqbolli ilmiy hamkorliklar uchun mustahkam zamin deb bilamiz. Ushbu anjuman biz uchun ilmiy yondashuvlar, ilg‘or tajribalar va innovatsion qarashlarni o‘rtoqlashish, yangi tashabbus va hamkorliklar uchun zamin yaratish imkoniyatidir. Bugungi muloqotlarimiz kelajak ta’limining mustahkam asoslarini barpo etishda xizmat qiladi, deb ishonaman.

Yakuniy so‘zimdagi, bugungi ilmiy-amaliy anjuman ishiga omad tilayman. Fikrlar, tajribalar, takliflar almashinuvi barchamiz uchun foydali bo‘lishiga, respublika miqyosida ta’limda innovatsiyalarni amalda joriy etishda kuchli turtki berishiga ishonaman.

E’tiboringiz uchun barchangizga chuqur minnatdorchilik bildiraman!

KIRISH SO‘ZI

A.Naimov - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyati hududiy boshqarma boshlig‘i

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari, bugungi kunda kasbiy ta’lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta’minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash birinchi navbatda ustuvor vazifalarimizdan biridir.

Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-

iyuldagi PQ-200 sonli qarori 9-bandiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-fevraldagi 70-sonli buyrug‘iga asosan, Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyida **“Ta’lim jarayonida innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni joriy qilish zamonaviy ta’limning bosh strategiyasi”** mavzusidagi Respublika ilmiy anjumanini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Anjumanning asosiy maqsadi viloyatda ta’lim sifati va ishchi kuchi salohiyatini oshirish, bu orqali mehnat bozori talablarini qondirish, tadbirkorlar yukuni yengillashtirish va malakali kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

“Dual” ta’lim ish beruvchilar ehtiyojlariga mos, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilib, talaba va o‘quvchilarga amaliyot orqali tajriba orttirish imkonini berib, bozor sharoitiga moslashuvchan kadrlar tayyorlashni tezlashtirish imkoniyatini yaratadigan tizimdir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari,

Buxoro viloyati iqtisodiyoti turli sohalarida rivojlanib bormoqda. Misol uchun sanoat, turizm, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori malakali ishchi kuchiga talab ortib bormoqda. Ammo amaliyot ko‘rsatganidek, kasbiy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislar ko‘pincha ishlab chiqarish talablariga to‘liq javob bera olmayapti. Shu sababli oliy ta’limni kuchaytirish, ya’ni akademik litsey o‘quvchilarini bilimli, dono qilib tayyorlash va oliy ta’limga kirish jarayonini kuchaytirish va kelajakda uzluksiz ta’lim tizimini ta’minlash, ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlash bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda viloyatimizda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun samarali ishlar olib borilmoqda.

Xususan, viloyatdagi **37 ta** texnikumda **2529 nafar** o‘quvchi, “Dual” ta’lim shakli asosida **1151 ta** korxona va tashkilotning bevosita ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etib, kasb-hunar o‘rganmoqda. Shuningdek, 5 ta akademik litseyda 444 nafar o‘quvchi taxsil olmoqda. Jumladan, Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyida o‘quv yili bitiruvchilarining 96-98% OTM da o‘qishini davom ettirib kelmoqda. Ushbu yutuqlarni qo‘lga kiritishda ushbu akademik litsey jamoasi va rahbariyatining xizmatlar benihoya kattadir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Ushbu ajjuman doirasida o‘rta bo‘g‘indagi kadrlar tayyorlashda muvjud muammolar o‘z ilmiy yechimlarini topishga asos bo‘lib xizmat qiladi deb umid bildiramiz va anjuman ishiga omad tilaymiz va uning tashkilotchilariga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Barchangizning faoliyatlaringizda omad va muvaffaqiyatlar tilayman!
E’tiboringiz uchun rahmat!

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O’RNI

U. H. Hayitov - p.f.f.d.(PhD)., dotsent, BuxDU.

F.F. Norova – tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida talabalar kommunikativ kompetentligini shakllantirishda mobil ilovalarning o’rni tahlil qilinadi. Mualliflar mobil ilovalarning interaktivlik, real vaqt rejimidagi muloqot va jamoaviy ish uchun yaratgan imkoniyatlarini yoritib beriladi. Maqolada turli xil mobil ilovalar — onlayn munozara platformalari, taqdimot vositalari, til o’rganish ilovalari hamda simulyatsion o’yinlar orqali talabalar kommunikativ kompetentligi va ijtimoiy muloqot qobiliyatlari rivojlanishiga bo’lgan ta’siri ilmiy asosda ko’rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada O’zbekistonda raqamli ta’lim sohasidagi davlat siyosati va istiqbolli yo’nalishlar ham yoritilgan. Tadqiqotlar mobil ilovalarning kommunikativ kompetensiyani samarali rivojlantirishdagi ahamiyatini isbotlaydi.

Kalit so’zlar: kommunikativ kompetensiya, mobil ilovalar, raqamli ta’lim, muloqot ko’nikmalari, onlayn ta’lim, interaktiv o’quv vositalari, sun’iy intellekt, raqamli savodxonlik

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida texnologiyalarning o’rni tobora ortib bormoqda. Mobil ilovalar, ayniqsa, ta’lim jarayonini samarali qilish va talabalar turli ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Ushbu maqolada mobil ilovalardan foydalanib talabalar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning mohiyati, uning ahamiyati va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan usullari tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya talabalar boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o’z fikrlarini ifoda etish va guruhda hamkorlik qilish qobiliyatlarini o’z ichiga oladi. Mobil ilovalar bu kompetensiyani rivojlantirishda noyob vosita bo’lib, ular orqali talabalarga virtual va real muhitlarda muloqot ko’nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari beriladi.

Zamonaviy jamiyatda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy omillaridan biri mobil ilovalarning rolidir. Ilmiy tadqiqotlarga ko’ra, bu kompetensiya talabalar til bilimlaridan tashqari, muloqot jarayonida axborotni to’g’ri qabul qilish, tushunish va etkazish qobiliyatlarini o’z ichiga oladi¹. Mobil ilovalar esa bu jarayonda talabalarga interaktiv platformalar, real vaqtda muloqot imkoniyatlari va jamoaviy ish tizimlarini taqdim etadi.

Masalan, L.S.Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko’ra, o’quvchilarning kommunikativ ko’nikmalari ularning ijtimoiy tajribasi va o’qituvchi yoki tengdoshlari bilan o’zaro ta’sirida shakllanadi (L.S.Vigotskiy,

¹ D. H. Hymes, On Communication Competence, Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1971

1978). Mobil ilovalar bu ta’sirni kuchaytirib, talabalarga onlayn forumlar, chat-guruhlar va video konferensiyalar orqali muloqot qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, mobil ilovalar orqali talabalarning raqamli savodxonligi ham rivojlanadi, bu esa ularning umumiy kommunikativ qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mobil ilovalardan samarali foydalanish orqali talabalarning muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish mumkin. Mobil ilovalardan foydalanib kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi usullarga alohida e’tibor talab qilinadi:

Onlayn munozara platformalari: Discord, Slack yoki Microsoft Teams kabi ilovalar talabalarga guruhlarda fikr almashish, loyihalar ustida hamkorlik qilish va o’z g’oyalarini taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu ilovalar orqali talabalar real vaqtda muloqot qilib, o’zaro hayron qolish va qarshi fikrlarni muhokama qilishni o’rganadilar (Johnson & Johnson, 2020).

Taqdimot va vizualizatsiya ilovalari: Canva, Prezi yoki Powtoon kabi ilovalar talabalarga o’z fikrlarini vizual tarzda ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda ular o’z g’oyalarini aniq va ta’sirli tarzda etkazish ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Til va muloqot rivojlantiruvchi ilovalar: Duolingo, Babbel yoki Grammarly kabi ilovalar talabalarning til ko’nikmalarini oshirish orqali ularning yozma va og’zaki muloqot qobiliyatlarini yaxshilaydi. Bu ilovalar, ayniqsa, chet tillarini o’rganayotgan talabalar uchun foydali hisoblanadi.

Simulyatsion o’yinlar va rollar o’yini ilovalari: Kahoot, Classcraft yoki Minecraft Education Edition kabi ilovalar talabalarga jamoaviy ishda rol o’ynash, muammolarni birgalikda hal qilish va strategik muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu usul ularning ijtimoiy va kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantiradi (Gee, 2003).

Video konferensiya ilovalari: Zoom, Google Meet yoki Cisco Webex orqali talabalar masofaviy muhitda hamkorlik qilish va o’z fikrlarini ifoda etishni o’rganadilar. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’limning muhim vositasi bo’lib chiqdi.

Bir qator ilmiy tadqiqot natijalari mobil ilovalarning talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, AQSh da o’tkazilgan “Mobile Apps and Student Communication Skills” tadqiqotda onlayn platformalarda guruhlarda ishlash talabalarning muloqot ko’nikmalarini 25% ga oshirgan (Smith et al., 2021). Yevropa Ittifoqi davlatlarida amalga oshirilgan boshqa bir tadqiqotda mobil ilovalardan foydalanish talabalarning jamoaviy ish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilagan (European Commission, 2023). Bu tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mobil ilovalar talabalarga faqat texnik ko’nikmalar emas, balki ijtimoiy va kommunikativ ko’nikmalar ham beradi.

O’zbekiston ta’lim tizimida ham mobil ilovalar orqali talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Masalan, O’zbekiston Respublikasining 2022-2026 yilgi strategik rejasida raqamli ta’lim

vositalaridan foydalanish va talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Mobil ilovalardan foydalanib talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ularning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn munozara platformalari, taqdimot ilovalari, til rivojlantiruvchi vositalar va simulyatsion o‘yinlar orqali talabalarning muloqot ko‘nikmalari samarali rivojlanadi. Ushbu kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatlariga, balki ularning ijtimoiy hayotdagi samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kelajakda mobil ilovalar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun sun’iy intellekt asosidagi yangi texnologiyalar va individualizatsiya qilingan o‘quv platformalaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilishi kerak. Bu esa talabalarni global miqyosda raqobatdosh va innovatsion shaxs sifatida tayyorlashga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Hymes, D. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
 2. Vigotskiy, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
 3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. Cooperative Learning in Digital Environments. Journal of Educational Psychology, 112 789-801.
 4. Smith, J., Brown, T., & Lee, K. Mobile Apps and Student Communication Skills. Educational Technology Research, 68, 234-245.
 5. European Commission. Digital Tools in Education: Impact on Student Competencies. Brussels: EU Publications.
- Gee, J. P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. New York: Palgrave Macmillan.

INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI PEDAGOGLARDA BANDLIK DARAJASINING YUQORI BO‘LISHI TURLI STRESSLARNI KELTIRIB CHIQUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Vahobova Durdona To‘lanboy qizi - Andijon davlat pedagogika inistituti,
magistrant

Umriniso Shobduraximova – (PhD)., Andijon davlat pedagogika inistituti,

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta’lim tizimi pedagoglar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ularning ish yuklamasi faqat dars o‘tish bilan cheklanmay, balki byurokratik talablar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan ishlash kabi qo‘shimcha majburiyatlarni ham, o‘z ichiga oladi. Bu esa stress darajasining oshishiga va kasbiy charchoq (burnout) sindromiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga innovatsion raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish esa, pedagoglarning

MUNDARIJA

KIRISH SO’ZI

S.G’.Siddiqova - p.f.f.d. (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori..... 4

KIRISH SO’ZI

A.Naimov - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyati hududiy boshqarma boshlig‘i..... 5

1-SHO’BA. UMUMTA’LIM MAKTabI, AKADEMIK LITSEY VA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION – STRATEGIK HAMKORLIGI

UMUMTA’LIM MAKTabI, AKADEMIK LITSEY VA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION - STRATEGIK HAMKORLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA AMALIY YECHIMLAR

A.B.Nizomov - i.f.d., professor, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Ilmiy ishlar bo’yicha prorektor..... 7

UMUMIY O’RTA, O’RTA MAXSUS VA OLIY TA’LIMDA FANLAR ORASIDAGI UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNING TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

E.Z.Halimov – p.f.n., dots., Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi ijrochi direktori..... 9

SINFDAgi PSIXOLOGIK IQLIMNI ANIQLASHNING BA’ZI JIHATLARI

E.Z.Halimov – p.f.n., dots., Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi ijrochi direktori..... 11

INNOVATIV PSIXOTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH MANBAI

Ubaydulla Axrorovich Kosimov – p.f.n., dotsent, Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida..... 13

PROSPECTS FOR THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna – f.f.f.d. (PhD), Fergana State University..... 18

AKADEMIK LITSEY VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA DUAL TA’LIMNI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Rajabov M. – BMTI akademik litseyi o’qituvchisi..... 22

ZAMONAVIY PEDAGOGIK FAOLIYATNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Sh.P.Mirxanov - Buxoro viloyat Peshku tumani 14-mumiy o’rta ta’lim maktabi direktori..... 24

Z.I.Nurilloev - Buxoro viloyat Romitan tumani 11-son IDIUM, oliy toifali kimyo fani o‘qituvchisi	
Z.I.Nurilloev - t.f.f.d. (PhD), BDTU “kimyo muhandisligi” kafedrası dotsenti,	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	
Ахмедова Хафиза Хакимовна - Старший преподаватель лицея Бухарского инженерно-технологического института.....	28
IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS WITH THE HELP OF INNOVATIVE DIGITAL TECHNOLOGIES	
Khujanova Mastura Ibodullayevna - Teacher at Uzbekistan State University of World Languages.....	32
OLIY TA’LIM TALABALARINING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI VA USLUBIY- DIDAKTIK TA’MINOTI	
Ubaydullayeva Sayyora Hasanovna - Professional ta’limni rivojlantirish Instituti, doktorant.....	35
USING PEDAGOGICAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS	
Toshpulatova Fotima Ungarovna - University of Tashkent Applied Science.....	37
MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ONLAYN VOSITALARDAN FOYDALANISHDA YAPONIYA TEXNOLOGIYASINING O‘RNI	
O.O.Jakbarov – NamDU mustaqil tadqiqotchisi, Namangan davlat texnika universiteti professori.....	40
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI	
Sh.H. Quliyeva – p.f.n., dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti.....	43
TA’LIM – TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION RAQAMLI TEXNALOGIYALAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Halimova Shoxina Eminjon qizi b.f.f.d (PhD). - Buxoro davlat Universiteti, Biologiya kafedrası dosenti.....	46
ПРОГРЕССИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЮ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ	
Атаева Г.И. – доцент, Бухарский государственный университет	49
РЕКОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЗНАНИЕ» В СВЕТЕ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	
О. А. Филиппов - д.ф.ф.н (PhD); Навоийский филиал НУВО “PROFI UNIVERSITY”.....	51

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI FASILITATOR SIFATIDA TAYYORLASHNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI.	
Tairova Madinabonu Baxtiyarovna - p.f.d., (DSc), Andijon davlat pedagogika instituti.....	55
СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	
И.Х.Шоев – д.ф.и.н. (PhD), доцент; Бухарский государственный университет.....	57
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: MUSTAQIL TA’LIMNI BOSHQARISHDA YANGI IMKONIYATLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR (XITOIY TILI MUSTAQIL TA’LIMI MISOLIDA)	
Shasaidova Lola Shamaksudovna -(PhD) O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.....	60
TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHI – PEDAGOG KREATIVLIGINING AHAMIYATI.	
Maxsud Raxmatov - dotsent, Sh. Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti	
Rasulova Maysara Nabiyeovna - O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistant o‘qituvchisi.....	64
TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.	
X.G. Shukurov, I.H.Norova – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi, matematika fani o‘qituvchilari.....	68
MA’LUMOTLARNI KODLASH.	
Kuziyeva Zebo Kudratovna – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litsey, o‘qituvchi.....	71
TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	
Boqiyeva Marjona Shuhratovna - BDTU akademik litsey ingliz tili o‘qituvchisi.....	75
MASOFAVIY TA’LIMDA O‘QITUVCHI VA TALABALAR O‘ZARO HAMKORLIGI	
Salimov Ro‘zibek Nasim o‘g‘li - Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi	
Sunnatova Madina Jamolovna - Buxoro davlat universiteti, talaba.....	77
ZAMONAVIY TA’LIM TARBIYA TIZIMIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA’SIRI	
Lola Djalolovna Yadgarova - Buxoro Davlat Universiteti, o‘qituvchi	
Dilnoza Bahodurovna Ergasheva - Toshkent Davlat milliy universiteti, magistrant.....	80
ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	

D.B.Sohibov - Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti.....	83
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RN	
U. H. Hayitov - p.f.f.d.(PhD)., dotsent, BuxDU.	
F.F. Norova – tayanch doktorant.....	86
INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI PEDAGOGIYALARDA BANDLIK DARAJASINING YUQORI BO'LISHI TURLI STRESSLARNI KELTIRIB CHIQUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA	
Vahobova Durdona To'lanboy qizi - Andijon davlat pedagogika inistituti, magistrant	
Umriniso Shobduraximova – (PhD)., Andijon davlat pedagogika inistituti.....	88
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОЗДАНИИ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ И ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ	
Мухамаджанов Шахриёр Солижанович – Phd., Начальник отдела Республиканского научно-методического центр развития образования	92
MASOFAVIY TA'LIMDA RAQAMLI PEDAGOGIKANING METODOLOGIK ASOSLARI	
Salimov Ro'zibek Nasim o'g'li – “Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari” kafedrası o'qituvchisi.....	95
TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Axmedova Hafiza Hakimovna - Buxoro muhandislik-texnologiya instituti litsey, o'qituvchi.....	99
TA'LIM SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, O'QITISH JARAYONINI SIFATLI VA SAMARALI QILISHDA MUHIM ROLI.	
Jonimqulov Toxir Ibragim o'g'li - Qarshi davlat texnika universiteti, assistant.....	103
TA'LIM SOHASIDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING FAOL QO'LLANILISHI TA'LIM-TARBIYA JARAYONI	
Jonimqulov Toxir Ibragim o'g'li - Qarshi davlat texnika universiteti.....	105
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM JARAYONINI MODERNIZATSIYA QILISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	
Amonova Nilufar Avaz qizi – Buxoro Davlat Universiteti, o'qituvchi	108
MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	
D.SH.Jo'rayeva – Guliston davlat universiteti, doktorant.....	110